

“Olmaliq KMK” AJning
“Yoshlik I” konini o‘zlashtirish” loyihaci to‘g‘risida
MA’LUMOTNOMA

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Olmaliq KMK” AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020 yil 26 maydagi PQ-4731-son qarori

Loyihaning quvvati: yillik **917 ming tonna** mis konsentrati va **2,5 ming tonna** molibden konsentrati.

Loyiha qiymati: **4 620,4 mln dollar**

Xorijiy hamkor: “Gazprombank” (Rossiya), “Международные проекты развития” (Rossiya).

Joylashgan manzili: Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, “Olmaliq KMK” AJ.

Xomashyo bazasi: Qalmoqqir, Yoshlik-1 konlari rudalarini qayta ishlash hisobiga ishlab chiqariladigan mis-molibden konsentratidan olinadigan mahsulotlar (mis katodi, oltin, kumush).

Yaratiladigan ish o‘rni: **5 647 ta**

Elektr energiyasi sarfi: yillik **568,7 mln KVt/s**

Gaz iste‘moli xajmi: yillik **3,3 mln m³**

Tovar mahsulot: yillik **3 594,5 mlrd so‘m**

Eksport ko‘rsatkichlar: yillik **241,6 mln dollar**

Loyihani amalga oshirish muddatlari: **2017-2025 yillar**

1. TSOT-ma‘dan obyektini qurish.

TSOT-ma‘dan qurilish maydonchasida **5,47 mln m³** (99,6 foiz) tuproq ishlari, **21,7 ming tonna** (95 foiz) armaturalash va **141,7 ming m³** (94 foiz) beton ishlari bajarilgan, **1 205 ta** (91 foiz) stav, **19,0 ming ta** (88 foiz) tayanch rolislari va **10,4 ming m** (59 foiz) konveyer tasmasi o‘rnatilgan bo‘lib, qurilish ishlariga **429 ta** ishchi xodim va **34 ta** maxsus texnikalar jalb qilingan.

TSOT-ma‘dan qurilishi loyihasi doirasida qurilish-montaj ishlari jami - 74 foizga bajarilgan bo‘lib, bunda:

1-son Maydalash-yuklash qurilmasi (DPU) bo‘yicha ishlar jami **67 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari – **96 foiz**, metall konstruksiyalar **4%** va asosiy texnologik uskunarlar montaji **72 foiz**;

2-son Maydalash-yuklash qurilmasi (DPU) bo‘yicha ishlar jami **71 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari – **97 foiz**, metall konstruksiyalar montaji – **40 foiz** va asosiy texnologik uskunarlar montaji – **74 foiz**;

3-son Maydalash-yuklash qurilmasi (DPU) bo‘yicha ishlar jami **98 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari – **99 foiz**, metall konstruksiyalar montaji – **100 foiz** va asosiy texnologik uskunarlar montaji – **99 foiz** bajarildi;

302100-CV-101 rusumli Yer usti konveyeri bo‘yicha ishlar jami **92 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari - **99 foiz**, metall konstruksiyalar montaji - **89 foiz** va asosiy texnologik uskunarlar montaji - **99 foiz** bajarildi;

302100-CV-201 rusumli Yer usti konveyeri bo‘yicha ishlar jami **46 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari - **99 foiz**, metall konstruksiyalar **30 foiz** bajarildi.

1.1. Asosiy texnologik uskunalarni yetkazib berish.

Qurilish maydonchasiga **3 dona** “Uralmashzavod” (Rossiya) KKD 1500x200 rusumli birlamchi maydalagichi, **6 to‘plam** “AUMUND” (Germaniya) plastinali ta‘minlagich yetkazib berildi, **2 to‘plam** “THYSSENKRUPP” (Germaniya) magistral va **3 to‘plam** yuk ag‘daruvchi konveyerlari uchun asosiy butlovchi qismlarni yetkazib berish qisman yakunlandi. Shuningdek, “URALKRAN”ning (Rossiya) **6 ta** ko‘priqli krani va **27 ta** elektr tallari, “Technopark Impuls”ning (Rossiya) **3 to‘plam** gidravlik bolg‘ali manipulyator qurilmasi, “PF ASK”ning (Rossiya) **3 dona** konsolli krani hamda “ASPEX”ning (Rossiya) **3 to‘plam** chang tozalash tizimi, CHKZning (Rossiya) **3 to‘plam** havo siqish tizimi, “WEIR”ning (Turkiya) **5 to‘plam** drenaj nasosi, “TEXNOKONT”ning (Qozog‘iston) **1 to‘plam** 35/10kV nimstansiyasi,

“EIM injiniring”ning (Rossiya) **3 to‘plam** qabul qilish bunkeri chang bostirish tizimi, “VENKON”ning (Rossiya) **3 to‘plam** havo aylantirish tizimi yetkazib berildi.

2. 3-MBFni qurish.

3-MBFni “Foydalanishga tayyor holda topshirish” sharti bilan qurish ishlari “**Olmalik KMK**” AJ hamda “**Uralmashzavod**” OAJ va “**Enter Engineering**” konsortsiumi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Qurilishda texnik nazoratni amalga oshirishga “**Worley Parsons**” xorijiy kompaniyasi jalb qilingan.

Qurilish maydonida **741,0 ming m³** (95 foiz) beton ishlari, **104,6 ming tonna** (99 foiz) armaturalash ishlari bajarildi, **25,1 ming tonna** (67 foiz) texnologik uskuna va **46,8 ming tonna** (78 foiz) metall konstruksiya montaj qilindi.

3-MBF qurilishi loyihasi doirasida qurilish-montaj ishlari jami - 63 foizga bajarilgan bo‘lib, shu jumladan:

Yirik maydalangan ma‘dan ombori (CKDR) bo‘yicha ishlar jami **94 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari - **100 foiz**, metall konstruksiyalar montaji – **98 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji - **95 foiz**;

O‘rta holda maydalash binosi (KSD) bo‘yicha ishlar jami **89 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari – **100 foiz**, metall konstruksiyalar montaji - **92 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji - **99 foiz**;

O‘rta holda g‘alvirlash binosi (KSG) bo‘yicha ishlar jami **84 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari - **100 foiz**, metall konstruksiyalar montaji - **94 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji **91 foiz**;

Kichik holda maydalash binosi (KMD) bo‘yicha ishlar jami **83 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari – **100 foiz**, metall konstruksiyalar montaji **92 foiz** boshlanish arafasida va asosiy texnologik uskunalar montaji - **72 foiz**;

Kichik holda g‘alvirlash binosi (KMG) bo‘yicha ishlar jami **82 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari – **100 foiz**, metall konstruksiyalar **84 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji **50 foiz**;

Ma‘dan tayyorlash binosi (KRP) bo‘yicha ishlar jami **66 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari – **96 foiz**, metall konstruksiyalar montaji **90 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji **62 foiz**;

Bosh flotatsiya binosi bo‘yicha ishlar jami - **48 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari – **98 foiz**, metall konstruksiyalar montaji - **53 foiz** va asosiy texnologik uskunalar montaji - **60 foiz**;

Mis-molibden kontsenratini quyultirish uchastkasi bo‘yicha ishlar jami **67 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari – **99 foiz**, metall konstruksiyalar montaji **54%** va asosiy texnologik uskunalar montaji – **93 foiz**;

Filtrlash va konsentratni yuklash binosi bo‘yicha ishlar jami **68 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari – **100 foiz**, metall konstruksiyalar **73 foiz**, va asosiy texnologik uskunalar montaji **64%**;

1-bosh pasaytiruvchi nimstansiya (GPP) bo‘yicha ishlar jami **98 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari, metall konstruksiyalar montaji va asosiy texnologik uskunalar montaji – **100 foiz**, elektr kabellarni yotqizish ishlari – **83 foiz**, yong‘indan ogohlantirish tizimini o‘rnatish ishlari boshlanish arafasida;

2-bosh pasaytiruvchi nimstansiya (GPP) bo‘yicha ishlar jami **80 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari va, metall konstruksiyalar montaji – **100 foiz**, asosiy texnologik uskunalar montaji - **92 foiz**, elektr kabellarni yotqizish ishlari - **19 foiz**, yong‘indan ogohlantirish tizimini o‘rnatish ishlari boshlanish arafasida;

3-bosh pasaytiruvchi nimstansiya (GPP) bo‘yicha ishlar jami **96 foizga** bajarilgan bo‘lib, bunda beton ishlari, metall konstruksiyalar montaji va asosiy texnologik uskunalar montaji – **100 foiz**, elektr kabellarni yotqizish ishlari – **71 foiz**, yong‘indan ogohlantirish tizimini o‘rnatish ishlari boshlanish arafasida;

Ma'muriy-maishiy bino (ABK) bo'yicha ishlar jami **84 foiz**, Maishiy bino (BK) bo'yicha esa **86 foizga** bajarildi.

3-MBF qurilishi maydoniga jami **14 121 ta** ishchi xodim (*yordamchi xodimlar va metall konstruksiyalarni tayyorlash uchastkasi ishchilari hisobga olinmaganda*) va **820 ta** maxsus texnika jalb qilindi.

2.1. Asosiy texnologik uskunalarni yetkazib berish.

Yirik maydalangan ma'dan ombori (CKDR) “URALKRAN”ning **36 to'plam** elektr tallari, “ASPEX”ning (Rossiya) **2 to'plam** havo tortish tizimi, “AUMUND”ning **16 to'plam**, “PTM”ning **2 to'plam** tasmali konveyeri hamda “WEIR”ning **8 dona** drenaj nasosi yetkazildi.

O'rta holda maydalash binosi (KSD) uchun “Uralmashzavod”ning **8 ta** KSD 3000/1500 rusumli konusli maydalagichi, “URALKRAN”ning **2 to'plam** ko'priqli elektr krani, “ASPEX”ning **8 to'plam** havo tortish tizimi hamda “WEIR”ning **6 dona** drenaj nasosi, “PTM”ning **8 to'plam** tasmali konveyeri, “URALKRAN”ning **9 to'plam** elektr tallari, “AUMUND”ning **16 to'plam** tasmali ta'minlagichi yetkazib berildi.

O'rta holda g'alvirlash binosi (KSG) uchun “Pnevmash”ning **8 ta** tebranuvchi g'alviri, “ASPEX”ning **4 to'plam** havo tortish tizimi, “PTM”ning **16 to'plam** tasmali konveyeri, “BMX RUS”ning **4 to'plam** aravachali yuk tushirish konveyeri, “WEIR”ning **5 dona** drenaj nasosi, “URALKRAN”ning **47 to'plam** elektr tallari, **2 to'plam** ko'priqli elektr krani hamda “AUMUND”ning **16 to'plam** tasmali ta'minlagichi yetkazib berildi.

Kichik holda g'alvirlash binosi (KMD) uchun “URALKRAN”ning **2 to'plam** ko'priqli elektr krani va **17 to'plam** elektr tallari, “PTM”ning **8 to'plam** tasmali konveyeri, “BMX RUS”ning **6 to'plam** tasmali uzatgichi, “WEIR”ning **5 dona** drenaj nasosi hamda “ASPEX”ning **6 to'plam** havo tortish tizimi va “THYSSENKRUPP”ning (Germaniya) **6 to'plam** yuqori bosimli rolikli presslash uskunalari (HPGR) yetkazildi.

Kichik holda g'alvirlash binosi (KMG) uchun “Kwatani”ning (SEVER MINERALS, Janubiy Afrika) **24 ta** uchlamchi g'alviri, “URALKRAN”ning **4 to'plam** ko'priqli elektr krani va **37 to'plam** elektr tallari, “PTM”ning **2 to'plam** tasmali konveyeri, “BMX RUS”ning **24 to'plam** tasmali uzatgichi va **4 to'plam** aravachali yuk tushirish konveyeri hamda “WEIR”ning **6 dona** drenaj nasosi yetkazib berildi.

Ma'dan tayyorlash binosi (KRP) uchun “UZTM-KARTEKS”ning **12 to'plam** sharli tegirmoni (*MSHTS*) yetkazildi va tegirmon futerovkasi yetkazib berilishi davom etmoqda, “Kwatani”ning (SEVER MINERALS, Janubiy Afrika) **47 ta** gravitatsiyali himoya g'alviri, “URALKRAN”ning **6 to'plam** ko'priqli va **72 to'plam** elektr krani, “WEIR”ning **24 dona** drenaj nasosi va **12 to'plam** gidrotsikloni, **32 to'plam** “INTERTECH” (Serbiya) tegirmonlari uchun gravitatsiyali konsentrator yetkazib berildi.

Shuningdek, sharli tegirmon uchun “CEMTEC”ning (Avstriya) **12 to'plam** gidrostatik podshipniklari, “CEMTEC”ning (Germaniya) **12 to'plam** tishli tojlari, “ABB Switzerland Ltd”ning **25 to'plam** tegirmon dvigateli va **12 to'plam** chilleri, “NAIPU”ning (Xitoy) **12 ta** tegirmon uchun silindrik butaralari, “DALIAN LEVVIE”ning (Xitoy) **12 to'plam** avtomatik shar yuklagichi hamda “GEARS MINING”ning (Avstraliya) **2 to'plam** qobiq (futerovka) almashtirish mashinasi va **3 to'plam** boltlarni chiqarib tashlash bolg'asi yetkazildi.

Mis-molibden konsentratini quyultirish uchastkasi uchun “Metso:Outotec”ning (Avstriya) quyultirgichlar uchun barcha **6 to'plam** vertikal tegirmoni, barcha **2 to'plam** filtrlari (Mo), “Metso:Outotec”ning (Finlyandiya) **5 to'plam** filtrlari (Su), “Metso:Outotec”ning (Xitoy) quyultirgichlar uchun **6 dona** 17 metrli, **2 dona** 28 metrli hamda **1 dona** 5 metrli sig'implari, “Metso:Outotec”ning (Evropa) barcha quyultirgichlariga asosiy uskunalar yetkazib berildi.

Bosh flotatsiya binosi uchun “Metso:Outotec”ning (Xitoy) barcha **6**-flotatsiya liniyasi uchun sig'implar va “Metso:Outotec”ning (Evropa) barcha **6 ta** flotatsiya liniyalariga asosiy uskunalar hamda “URALKRAN”ning **5 to'plam** ko'priqli elektr krani (Rossiya) yetkazib berildi.

1, 2, 3 - son pasaytiruvchi nimstansiyalar (GPP) uchun “TEXNOKONT” (Qozog'iston)ning **15 to'plam** KTP (to'plamli transformator nimstansiyasi) yetkazib berildi.

Asosiy zavod xo‘jaligi qismi uchun (OZX) “Airpol”ning (Polsha) **5 to‘plam** havo siqish tizimi, **1 to‘plam** havo kompressori, “Seagull”ning (Xitoy) suv sovitish minorasi barcha **3 ta** liniyasi, Ohak sutini tayyorlash zavodining **1**-partiyasi yetkazib berildi, yakuniy **2**-partiyasi “Yilmaz Proses Teknologijeleri” (Turkiya) tomonidan **j.y. sentyabrda** yetkazilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, “WILO” (Hindiston)ning yong‘inga qarshi suv nasos stansiyasi uchun **6 to‘plam** nasosi, “Akvabiom” (Rossiya)ning **1 to‘plam** oqava yomg‘ir suvlarini tozalash inshooti yetkazildi.

“Wilo Nasos Tizimlari” MCHJning (Toshkent) salnik qotishmalar uchun **9 ta** suv nasosi; “Sulzer Pumps”ning (Finlyandiya) **40 ta** gidrozatvor nasoslari, **3 ta** GSW nasosi, “V-Flo”ning (Xitoy) **3 ta** sovutuvchi suv nasosi hamda qoldiqlarni utilizatsiya qilish uchun **3 ta**, “Zhejang KEER Pump”ning (Xitoy) texnologik suv nasos stansiyasi uchun **3 ta** va xom suv tizimi uchun **26 ta**, reagentlar tizimi uchun **108 ta** nasos yetkazildi.

3. 3-MBF infratuzilma obyektlarini qurish.

Qoldiqlarni saqlash xo‘jaligida (I-xarita) to‘g‘on poydevorini qurish bo‘yicha **17,5 mln m3** (**31 foiz**) (*shundan 9,2 mln m3 to‘g‘on qurilishi bo‘yicha*) tuproq ishlari bajarildi va **11,0 ming m** (**38 foiz**) quvur yotqizildi. Mazkur ishlarga **273 ta** ishchi xodim va **327 ta** maxsus texnika jalb qilingan.

Tashqi suv ta‘minoti obyektlari qurilish maydonida **77,4 km** (**69 foiz**) suv quvurlari yotqizildi, shuningdek, **120 ta** (**100 foiz**) quduq burg‘ulash ishlari, **1,39 mln m3** (**75 foiz**) tuproq ishlari, **3,0 ming tonna** (**71 foiz**) armaturalash, **15,5 ming m3** (**57 foiz**) beton ishlari bajarildi. Ushbu ishlarga **141 ta** ishchi xodim va **49 ta** maxsus texnika jalb qilingan.

Hozirgi kunda, **3-MBF va uning infratuzilma obyektlari** qurilishiga jami **14 964 ta** ishchi xodim (*yordamchi xodimlar va metall konstruksiyalarni tayyorlash uchastkasi ishchilari hisobga olinmaganda*) va **1 229 ta** maxsus texnika jalb qilingan.

4. Moliyalashtirishni jalb qilish.

“Gazprombank”ning **1,0 mlrd dollarlik** qarz mablag‘lari jalb qilinib, Loyiha ofisi obyektlari perimetri doirasida **678,0 mln dollar** o‘zlashtirilgan.

“Международные проекты развития” kompaniyasi bilan **712,0 mln yevro** ekvivalentida moliyalashtirishni jalb qilish bo‘yicha qarz shartnomasi imzolangan bo‘lib, unga ko‘ra, **295,2 mln yevro** qiymatida qarz mablag‘lari tanlab (*выборка*) olindi (**319,6 mln dollar ekv.**).

3-MBF, Qoldiqlarni saqlash xo‘jaligi (*I-xarita*) va Tashqi suv ta‘minoti obyektlarini qurish bo‘yicha tuzilgan **YeRS-shartnomalar** doirasida jami **1 782,9 mln dollar** (**153,0 mln dollar QQSni hisobga olgan holda**), jumladan obyektlar kesimida **3-MBF** bo‘yicha **1 606,9 mln dollar**, Qoldiqlarni saqlash xo‘jaligi (*I-xarita*) bo‘yicha **76,6 mln dollar** va Tashqi suv ta‘minoti bo‘yicha **99,4 mln dollar** miqdorida to‘lovlar amalga oshirildi.

5. Loyiha ofisi obyektlari perimetri doirasida amalga oshiriladigan ishlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining **2023 yil 27 oktyabrdagi 26/1-410-son** topshirig‘iga muvofiq barcha tegishli resurslar (ishchi kuchi va maxsus texnika)ni safarbar qilgan holda qurilish-montaj ishlarini yakunlash hamda **2024 yil 31 dekabrgacha** fabrikani to‘liq quvvatida ishga tushirish bo‘yicha choralar ko‘rish.

2. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri raisligida o‘tkazilgan **2023 yil 9 noyabrdagi 200-son** (**09.11.2023 yildagi VM-1218-son bilan ro‘yxatga olingan**) hamda Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalari bo‘yicha Hukumat komissiyasining **2023 yil 29 noyabrdagi 106-son** (**30.11.2023 yildagi 04-01-149-son bilan ro‘yxatga olingan**) yig‘ilish bayonlariga muvofiq **2024 yil yakuniga qadar** “Yoshlik I” konini o‘zlashtirish loyihasini to‘liq quvvatida ishga tushirish belgilangan.

3. Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining **2023 yil 16 noyabrdagi 107-son** bayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2023 yil 28 fevraldagi PF-27-son** Farmonining yiliga **60 mln tn** ma‘danni qayta ishlash quvvatiga ega **3-MBF**ni ishga tushirishga doir **42.2-bandi** muddatini **2024 yil 31 dekabrgacha** uzaytirish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatilgan.

4. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan **3-MBF** va uning infratuzilma obyektlarini qurishni jadallashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ga (**2024 yil 10 fevraldagi**

26/1-410-son topshiriq) muvofiq **2024 yil yakuniga qadar** fabrikani to'liq quvvatida ishga tushirilishini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish belgilangan.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024 yil 21 fevraldagi PF-37-son Farmoni** hamda Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining **2024 yil 16 martdagi 26-son** bayoniga asosan **2024 yil oktyabrda** fabrikani foydalanishga topshirilishini ta'minlash belgilangan.

6. Asosiy muammoli masalalar:

TSOT-ma'dan bo'yicha:

1. **2024 yil 20 oktyabrga qadar** TSOT-ma'dan konveyer tizimlari bo'yicha "FLSmidth" kompaniyasi tomonidan qolgan uskunalarni (RIO shkaflari, **5 ta** qaytaruvchi barabanlar) **yetkazib berish**.

2. **2024 yil 20 oktyabrga qadar** CV-101 magistral konveyeri elektr xonalariga ishlarni **yakunlagan holda** KTP-403207 nimstansiyasidan **kuchlanish berilishini ta'minlash**.

3. **2024 yil 30 oktyabrga qadar** qolgan **308 tn** hajmda (3-son yuk tushirish konveyeri, 1-son magistral konveyer, yo'naltiruvchi bortlar uchun **5,5 tn** futerovka uchun) **metall konstruksiyalar tayyorlanishini ta'minlash**.

3-MBF bo'yicha:

1. **Joriy yilning oktyabr oyida** materiallar (*kabel, nazorat-o'lchov asboblari (KIP), futerovka, quvurlar, nasoslar, yopish va nazorat klapanlari (ZRA) va boshqalar*) **yetkazib berilishini ta'minlash**.

2. Qo'shimcha **4 mingdan** ortiq ishchi xodimlarni, jumladan **3 ming** nafar ishchi xodimlarni oktyabr oyida jalb qilish.

Qoldiqlarni saqlash xo'jaligi (1-xarita) bo'yicha:

1. Futerovkalangan quvurlar va novlar, yopish na nazorat klapanlari, kompensatorlar va boshqa materiallarni **yetkazish zarur**;

2. Bugungi kunda, to'g'on qurish bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan tuproq ishlari hajmi **28 mln m³** tashkil qilib, bunda ishlarni bajarish uchun **joriy yilning oktyabrdan** boshlab oyiga **2,6 mln m³** hajmda tuproq ishlari amalga oshirish zarur, buning uchun qo'shimcha **490 ta** maxsus texnika safarbar qilish hamda yonilg'i va sarflovchi materiallar bilan ta'minlash lozim.

Tashqi suv ta'minoti bo'yicha:

1. Uskuna va materiallar (*110/10 kV, 35/6 kV nimstansiya, yopish va nazorat klapanlari (ZRA), nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika (KIPiA), elektrika*)ning "Enter Engineering" tomonidan **joriy yilning sentyabr oyida yetkazib berish**;

2. Qurilish maydonida **qo'shimcha** kamida **600 nafar** ishchi xodim hamda **90 ta** maxsus texnika bilan **ta'minlash**.

7. "Yoshlik I" konida karerni qurish va uning ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo etish.

Karerni qurish bo'yicha loyiha boshidan:

201,9 mln m³ (yil boshidan **28,0 mln m³**) kon yuzasini ochish ishlari bajarildi (*ishlar 2 smenada tashkil etilib, 1 800 nafar ishchi-xodimlar va 400 ta texnika ishlamoqda*) hamda **41,63 km** temir yo'llar yotqizildi;

602 ta (*466,0 mln dollar*) kon texnikasi (*54 ta 130 tonnalik, 29 ta 220 tonnalik BelAZ va 5 dona NMT-240 TEREX-KRANTAS 220 tonnalik samosvallari, 33 ta ekskavator, 23 ta burg'ilash uskunasi, 12 ta aralashtirish-zaryadlash mashinalari*) **254 ta** temir yo'l texnikasi (*1 ta elektrovoz, 5 ta teplovoz, 212 ta dumpkar, 7 ta yo'l qurish texnikasi*) shuningdek **192 ta yordamchi texnika**) xarid qilindi.

Siklli oqim texnologiyasini ("TSPT - 2 poroda")

yiliga **20 mln m³** dan oshiq bo'sh tog' jismlarini tashuvchi Siklli oqim texnologiyasini ("TSPT-poroda") qurish uchun **5,9 mln m³** dan (rejaga nisbatan 80,8 foiz) ortiq yer ishlari amalga oshirildi;

Ishtirokchilardan kelgan TTT ko'rib chiqish natijasida va xarid komissiyasining 2024 yil 12 iyuldagi 357007-son bayonnomasi asosida tenderda «TMX Consulting Ltd» kompaniyasi g'olib deb topildi.

Bugungi kunda g'olib kompaniya bilan muzokaralar borilmoqda.

Kon sanoat maydonchasi:

- “Yoshlik I” va “Qalmoqqir” koni TK-1 va TK-2 sanoat maydonchalari qurilishi bo‘yicha loyiha hujjatlari bosh loyihachi tomonidan taqdim etilgan.

- “Yoshlik I” sanoat maydonchasining yer ishlari to‘liq bajarilgan. Perimetral to‘siq devori **100** foizga bajarildi.

Binolarning poydevor qismi **85** foizga ga bajarilgan.

- “Qalmoqqir” sanoat maydonchasiga olib boruvchi 1,2 km. yo‘l to‘liq tugallangan. Hozirda “Yoshlik I” kotlavan va transhey kovlash ishlari **80** foizga bajarildi.

“Qalmoqqir” sanoat maydonchasining perimetrial to‘siq devori **100** foizga bajarildi.

- GSHO sanoat maydonchasi qurilishi bo‘yicha loyiha hujjatlari bosh loyihachi tomonidan taqdim etilgan.

Bino va inshootlar qurilishi **90** foizga bajarilgan.

Hozirda binolarning uskuna va jihozlari olib kelinmoqda.

Kon va bo‘sh tog‘ jismlarini tashuvchi siklli oqim texnologiyasi uskunalarini elektr energiyasi bilan ta‘minlovchi TP-8 va TP-9 nimstansiyalari bo‘yicha pudratchi “**O‘zelektroapparat-Electroshield**” qo‘shma korxonasi tomonidan loyiha xujjatlari bajarildi. Pudratchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari 2024 yil tugatiladi va foydalanishga topshiriladi.

“**TN-8**” qurilishi bo‘yicha vertikal maydoni tayyorlash ishlari tugatilgan va dalolatnomalar topshirilgan.

- **2** dona **80** MVA transformatorlar o‘rnatilgan.

Qurilish montaj ishlari **100 foizga** bajarilgan.

Joriy yilning **30 avgust** sanasida ishga tushirildi.

- “**TN-9**” qurilishi bo‘yicha vertikal maydonini tayyorlash ishlari tugatilgan va dalolatnomalar topshirilgan.

- **2** dona **63** MVA transformatorlar transformatorlar o‘rnatilgan.

Qurilish montaj ishlari **100 foizga** bajarilgan.

Joriy yil **oktyabr** oyida ishga tushirilishi kutilmoqda.

8. 650 megavatt quvvatli tashqi elektr ta‘minoti obyektini qurilishi

Elektr ta‘minoti obyektlarini qurish bo‘yicha “**O‘zelektroapparat-Electroshield**” qo‘shma korxonasi tomonidan **10 km** 500 kVli elektr liniyasining qurilishi **100 foizga** bajarildi.

Shuningdek, 500 kV raqamli podstantsiyasida qurilish-montaj ishlari va asosiy uskunalarini yetkazib berish **100 foizga** bajarildi. Obyekt 2023 yil dekabr oyida qurilish ishlari yakunlanib, bugungi kunda tarmoqqa ulash va sozlash ishlari amalga oshirilmoqda.

9. Portlovchi materiallar zavodi va Portlovchi materiallar omborini rekonstruksiya qilish:

Asosiy ishlab chiqarish texnologik qurilmalar: **13** dona sig‘imlar o‘rnatildi **100 foiz**, texnologik modullar **100 foizga** bajarildi hamda kompressorlar va parogeneratorlar o‘rnatilgan bo‘lib, bino va inshootlari qurilishi davom etmoqda.

Yordamchi uskuna va qurilmalarni (tashqi elektr ta‘minoti, transformatorlar, tashqi va ichki suv ta‘minoti, texnologik chiqindi suvlarini qayta ishlovchi inshoot, qo‘shimcha temir yo‘l kesishmalari, YoMM, yordamchi materiallarni saqlash - tarqatish omborlari va suvni isitish tizimi) xarid qilish va o‘rnatish ishlari olib borilmoqda.

Joriy yil dekabr oyida ishga tushiriladi.

10. Vaqtinchalik avto va temir yo‘llar

Tashqi kommunikatsiya va vaqtinchalik temir yo‘l izlari qurilishi olib borilmoqda.

TIAga ko‘ra jami **45,6** km. temir yo‘llar qurilishi rejalashtirilgan bo‘lib shundan 01.07.2024y. holatiga qurilish ishlari umumiy qiymati **132,65** mlrd. so‘mlik **41,48** km temir yo‘llar to‘liq qurilgan va elektrlashgan.

Joriy yilda “Qalmoqqir va Kolvevaya stansiyalari hamda ular orasidagi peregon”, “Svinsovaya stansiyasi”, “Otvalnaya stantsiyasi” va “Fabrichnaya stansiya” larining MPTS (signal va strelkalarni mikroprotessorli markazlashtirish) va ESSO (o‘qlar hisobining elektron tizimi) ishga tushiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri raisligida o‘tkazilgan **2023 yil 9 noyabrdagi 200-son (09.11.2023 yildagi VM-1218-son bilan ro‘yxatga olingan)** hamda Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalari bo‘yicha Hukumat komissiyasining **2023 yil 29 noyabrdagi 106-son (30.11.2023 yildagi 04-01-149-son bilan ro‘yxatga olingan)** yig‘ilish bayonlariga muvofiq:

- **2024 yil may oyida** 3-MBF 1-liniyalari qurilish-montaj ishlarini yakunlash;
- **2024 yil yakuniga qadar** “Yoshlik I” konini o‘zlashtirish loyihasini (I bosqich, 1-navbat) to‘liq quvvatida ishga tushirish belgilangan.

II. Amalga oshiriladigan ishlar.

Tog‘-kon sanoat va geologiya hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirliklari bilan birgalikda **“Yoshlik I” konini o‘zlashtirish** strategik investitsiya loyihasi bo‘yicha yil yakuniga qadar **1179,0 mln dollar** jumladan **“Yoshlik I” konini o‘zlashtirish loyihasi bo‘yicha 244,0 mln dollar** mablag‘larni o‘zlashtirish va obyektlarni belgilangan muddatlarda ishga tushirishni ta‘minlash maqsadida qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilab olindi.

“Yoshlik I” konida karerni qurish va uning ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo etish.

- 1) Joriy yil yakuniga qadar yana **32,0 mln m³** kon ochish ishlari bajariladi.
- 2) Joriy yil yakuniga qadar Tog‘-kon majmuasi va infrastrukturasi quyidagi obyektlari foydalanishga topshiriladi:

“Yoshlik I” kareri, Portlovchi materiallar zavodi, ASU GTK, “TN-8”, “TN-9”, 8,2 km ichki avtomobil yo‘llari, **4,12 km** ichki karer temir yo‘llar quriladi va elektrlashtiriladi, **4** ta temir yo‘l stansiyalarining mikroprotessorli markazi va o‘qlar hisobining elektron tizimi, namunalarni kesish va tahlil qilish laboratoriyasi.

- 3) bo‘sh tog‘ jismlarini tashuvchi Siklli oqim texnologiyasi (“TSPT-poroda”) bo‘yicha yil yakuniga qadar qurilish ishlari amalga oshiriladi.